

QO‘QON XONLIGIDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA QONUN USTIVORLIGI

Ohunjonov Boburjon Ilhomjon o‘g‘li

IIV Farg‘ona akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.12.2025

Revised: 25.12.2025

Accepted: 26.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Qo‘qon xonligi, jamoat tartibi,
qonun ustuvorligi, shariat, sud
tizimi, qozi, huquqiy ong.*

Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida jamoat tartibini ta‘minlash tizimi, tartibot organlarining faoliyati, qonuniy me‘yorlarning qo‘llanilishi va xonlik davrida huquqiy ongning shakllanishi yoritiladi. Asosiy e‘tibor xonlik davridagi sud-huquq tizimi, jazoni qo‘llash shakllari va shariat qonunlarining amaliyotdagi o‘rni kabi masalalarga qaratilgan

Kirish

Har qanday davlatning asosiy tayanchi bu - jamoat tartibi, qonun ustuvorligi va ichki xavfsizlik tizimidir. Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan har qanday davlat, avvalo, o‘z fuqarolari xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ijtimoiy muvozanatni saqlash orqali barqarorlikka erishgan. Ana shu omillar Qo‘qon xonligining ijtimoiy-huquqiy hayotida ham o‘z aksini topgan. Xonlik ichida tartibni saqlash va jinoyatlarning oldini olishda mirshablar muhim o‘rin egallagan.

Qo‘qon xonligi XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan eng yirik va nufuzli davlatlardan biri bo‘lib, uning siyosiy va huquqiy tizimi Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin tutadi. Ushbu davlatda hokimiyat xon qo‘lida jamlangan bo‘lib, unga yaqin turgan amaldorlar, xususan, qozilar va mirshablar jamoat tartibi va odil sudlovni ta‘minlovchi asosiy kuchlar sifatida faoliyat yuritganlar [1].

Xonlikda har bir mahalla, tuman va shaharlar darajasida ichki xavfsizlik va tinchlikni ta‘minlash mirshablar zimmasiga yuklangan bo‘lib, ularning faoliyati zamonaviy politsiya

organlari vazifalariga yaqin bo'lgan. Mirshablar bevosita xonlik hokimiyati vakili sifatida jinoyatchilarni aniqlash, hibsga olish, jamoat tartibini tiklash, tungi patrullik, bozorlarda nazorat o'rnatish kabi vazifalarni bajaranganlar. Ular faoliyatida qattiqqo'llik, halollik va tezkorlik muhim sifatlar hisoblangan [2].

Qo'qon xonligidagi huquqiy tartiblar asosan islomiy huquq, ya'ni shariat qoidalariga tayangan. Qozilar fuqarolik va jinoyat ishlarini yuritgan bo'lsa, mirshablar ularning amaliy ijrosini ta'minlagan. Ya'ni, sud qarorlarini bajarish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va jazoning ijrosini nazorat qilish mirshablarning zimmasida bo'lgan. Bu esa mirshablik tizimining faqatgina ma'muriy emas, balki huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi [3].

Xonlik ichida jamoat tartibini saqlashga bo'lgan yondashuv davlat mustahkamligining muhim omili sifatida qaralgan. Aynan mirshablarning samarali faoliyati natijasida jinoyatchilik darajasi past bo'lgan, odamlarda tartibga bo'lgan hurmat shakllangan. Shuningdek, aholining tinch hayot kechirishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda mirshablar o'zlarining boy tajribalari va mashaqqatli mehnatlari bilan tarixda muhim iz qoldirishgan [4].

Ushbu ilmiy ishda Qo'qon xonligi mirshablik faoliyatining tarixiy ildizlari, huquqiy asoslari, amaliy vazifalari hamda jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Mazkur tahlillar asosida jamoat tartibini saqlash borasidagi tarixiy tajriba bugungi kundagi ichki ishlar tizimi bilan qiyosiy jihatdan baholanadi.

Qo'qon xonligida ham harbiy harakatlar vaqtida qo'shinga jalb etiluvchi yordamchi bo'linmalar - "qoraqozon" va "qoracherik" tartibiga keltirilib, yangi nomuntazam yordamchi bo'linma "qilquyruq"ga asos solindi. Qo'shinda "shogirdpeshalar" bo'linmasi mavjud bo'lib, unga boshqa bo'linmalarning yosh, iqtidorli, o'ziga to'q vakillari saralanib olinib ularga turli jang uslublari, harbiylarning boshqarish san'ati o'rgatilgan.

Qo'qon xonligi XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda siyosiy jihatdan yetakchi davlatlardan biri bo'lgan. Bu xonlikda davlat boshqaruvi markazlashgan bo'lib, barcha siyosiy va ma'muriy ishlar xon qo'lida jamlangan edi. Xonlikda huquqiy tizim asosan shariatga, ya'ni islom huquqiga tayangan. Shu bilan birga, ba'zi hududiy va urf-odatga asoslangan qoidalar ham amal qilgan. Mazkur holat mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatida o'z ifodasini topgan.

Qo'qon xonligi ichki boshqaruv tizimida qozilar, mirshablar, amaldorlar va boshqa mahalliy idora vakillari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritgan. Ular orqali davlat ichki

ishlarida tartib saqlangan, jinoyatchilikka qarshi kurash olib borilgan va ijtimoiy barqarorlik ta'minlangan. Aynan shu tizimda mirshablar alohida o'rin tutgan bo'lib, ular jamoat tartibini saqlovchi asosiy kuch sifatida faoliyat yuritganlar.

Mirshablar o'z mohiyatiga ko'ra, zamonaviy politsiya tizimining tarixiy ildizlariga yaqin bo'lgan. Ularning asosiy vazifasi jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilarni aniqlash va ularni qozilar huzuriga yetkazishdan iborat edi. Mirshablar jamoat joylarida - bozor, hammom, madrasa, masjid va karvonsaroylarda doimiy nazorat olib borganlar. Ular xususan quyidagi vazifalarni bajarganlar:

- Jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va ushlash;
- Tartibsizlik va zo'ravonlik holatlarining oldini olish;
- Tunda ko'cha-kechada yurib, patrul xizmatini bajarish;
- Shubhali shaxslarni kuzatish, tergovga olib borish;
- Qozilar tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini ijro etish [2].

Mirshablar shahar va qishloqlarda alohida guruhlar shaklida faoliyat olib borishgan. Har bir shahar yoki yirik qishloqda mirshablar bo'limi (mirshabxona) bo'lgan. Ularga "mirshabi kalon" boshchilik qilgan, ya'ni katta mirshab barcha mahalliy mirshablar ishini muvofiqlashtirgan.

Mirshablar, odatda, halol, ishonchli va jasoratli kishilar orasidan tanlab olingan. Ularni xon yoki bevosita hokim tayinlagan. Shu bilan birga, ularning nomzodlari mahalla oqsoqollari, qozilar va boshqa mahalliy arboblardan ham ma'qullangan. Bu tanlov jarayoni mirshablarning jamoa ishonchini qozonishi va ular faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Mirshablar faoliyati qat'iy nazorat ostida bo'lgan. Agar ular o'z vakolatidan chetga chiqsa, xalqni nohaq qiynasa yoki poraxo'rlikka yo'l qo'ysa, darhol javobgarlikka tortilgan. Bunday qat'iy nazorat tizimi mirshablar faoliyatining qonuniylikka asoslanganligini va fuqarolar manfaatiga xizmat qilganligini ko'rsatadi [3].

Qo'qon xonligida jinoyatlarga nisbatan chiqarilgan hukmlarni amalga oshirish ham mirshablar zimmasiga yuklatilgan. Masalan, o'g'rilik qilgan shaxsni ushlash, u haqda dalillar to'plash, guvohlarni olib kelish, sud qarori chiqarilgach jazoni ijro etish - bularning barchasida mirshablar faol ishtirok etganlar. Eng ko'p qo'llanilgan jazo turlari quyidagilar bo'lgan:

- Qamchi bilan urish (tan jazosi);
- Qamoqqa olish (zindonga tashlash);

- Mol-mulkni musodara qilish;
- Sharmandali jazolar (jamoat oldida yuziga qora niqob kiydirish yoki oyog'iga zanjir solish);
- Og'ir holatlarda - o'lim jazosi [1], [4].

Mirshablar jazoni bevosita jamoatchilik oldida ijro etgan, bu orqali jamoa orasida ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga erishilgan. Shu jihatdan ularning faoliyati nafaqat huquqiy, balki tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan.

Qo'qon xonligida islom dini asosiy ijtimoiy hayotni belgilovchi omil bo'lib, mirshablar ham o'z faoliyatlarida shariat me'yorlariga amal qilganlar. Masalan, jamoat joylarida beandisha yurish, ayollarni mazax qilish, spirtli ichimlik iste'mol qilish kabi harakatlarga nisbatan mirshablar qat'iy choralar ko'rganlar. Ayniqsa, Ramazon oylarida va juma kunlari jamoat tartibining alohida nazorat qilinishi talab etilgan [2].

Shu orqali mirshablar faqat jinoyatchilikka qarshi kurash bilan cheklanmay, balki ahloqiy me'yorlarni saqlash, yoshlarni tarbiyalash, axloqsizlikka qarshi kurashish vazifalarini ham bajargan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar tizimi ham tarixiy ildizlariga ega. Qo'qon xonligidagi mirshablik faoliyati bu tizimning qadimgi shakli bo'lib, undagi tartib, ierarxiya, javobgarlik, xizmat burchi va fuqarolar xavfsizligiga yo'naltirilgan yondashuvlar zamonaviy tizim uchun tarixiy asos vazifasini o'taydi.

Mirshablarning xalq oldidagi mas'uliyati, jamoatchilik bilan ishlash madaniyati va adolatga bo'lgan yondashuvi bugungi davr militsiyasi (ichki ishlar organlari) xodimlari uchun ham ibrat bo'la oladi. Bu tarixiy tajribani chuqur o'rganish orqali huquqni muhofaza qilish sohasini yanada takomillashtirish mumkin [3].

Xulosa

Qo'qon xonligi tarixiga nazar tashlaganimizda, ushbu davlatda ichki barqarorlikni ta'minlash, qonuniylikni qaror toptirish va jamoat tartibini saqlash borasida mukammal tizim shakllanganini ko'ramiz. Bu tizimda ayniqsa mirshablar faoliyati alohida o'rinni egallagan. Mirshablar nafaqat jinoiy holatlarning oldini olish, balki huquqni muhofaza qilish, jamoa orasida adolatni qaror toptirish va diniy-axloqiy me'yorlarga rioya qilinishini ta'minlashda ham faol ishtirok etganlar.

Mirshablik faoliyatining samaradorligi, avvalo, uning qonuniy asoslarda, shariat me'yorlariga tayangan holda tashkil etilgani va mahalla-kishilik jamiyati bilan uzviy aloqada olib borilganida ko'rinadi. Mirshablar faqatgina davlat vakillari emas, balki xalq

=====

xizmatidagi amaldor sifatida faoliyat yuritgan. Ularning halolligi, jasorati va qat’iyati jamoatchilik orasida tartib-intizomni ta’minlashda muhim vosita bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зияев, Х. Х. История Кокандского ханства. - Ташкент: Фан, 1993. - 256 с.
2. Қаюмов, С. Ўрта асрларда ҳуқуқ ва давлат. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 212 б.
3. Жалилов, А. Қўқон хонлигида суд-ҳуқуқ тизими. - Фарғона: Илм-зиё, 2004. - 180 б.
4. Каримов, Р. Қўқон хонлиги тарихидан лавҳалар. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. - 196 б.

